

Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarning semantik tahlili

Isamatova Nigora (Lingvistika 2kurs magistranti)

Annotatsiya

Maqola tilshunoslik masalalariga bag‘ishlangan. Unda turk tilidan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarning semantik tahlili misollar yordamida tushuntirib berilgan.

Tilning lug‘at tarkibining rivoji ma‘lum qonuniyatlarga asoslanadi. Lug‘at tarkibida muayyan tarixiy davrlar o‘tishi bilan o‘ziga xos ma‘lum o‘zgarishlar yuz berishi mumkin. Bunday o‘zgarishlar ma‘lum ichki qonuniyat, tashqi kuchlar ta’sirida, obyektiv ravishda, ma‘lum mezonlar doirasida yuz beradi. Tilga boshqa tillardan so‘z qabul qilinishi ham shunday. Til o‘zida vositalar, imkoniyatlar bo‘lgan holda boshqa, o‘zga tildan so‘z olmaydi. Qabul qilinuvchi so‘z ma‘lum, biror yangi tushuncha anglatasa, yangi informatsiya tashisa yoki u yoki bu semantik yukka ega bo‘lsagina tilga kirishi mumkin¹.

Fors tilidagi o‘zlashmalar turli tillardan kirgan va eng qizig‘i ular morfologik, sintaktik, fonetik jihatdan farqlanuvchi turli xil til oilalariga mansub tillardan o‘zlashtirilgan. Shunga qaramay bu o‘zlashmalarning barchasi fors tilining ichki qonuniyatlariga bo‘ysundirilgan.

O‘zlashmalarning moslashuv jarayoni orasida semantik jihatdan moslashuvining ahamiyati katta va ancha qiziqarlidir. Umuman olganda leksik birliklarning ma’nosi va undagi o‘zgarishlarni o‘rganuvchi semantika (semasiologiya) barcha tilshunoslik maktablarida o‘ta muhim bo‘limlardan hisoblanadi. Zero til avvalo muloqot va axborot almashinuvi qurolidir. Shuningdek, so‘zning semantik strukturasi, so‘zning leksikografik talqini, monosemiya, polisemiya kabi masalalar bilan chambarchas bog‘lanadigan bu problema faqat

¹ Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 48.

semasiologiya uchun emas, balki tilning boshqa lingvistik bahslari (leksikologiya, leksikografiya, onomasiologiya, etimologiya kabilar) uchun ham prinsipial ahamiyatga ega”.²

Turkiy tildan fors tilidagi soʻzlarning semantikasini oʻrganish ancha qiziqarli va shu bilan birga biroz murakkab va nozik qirralari bor:

Birinchidan: Turkiy tildan fors tilidagi soʻzlar uzoq muddatli vaqt mobaynida oʻzlashgan. Ilk turkiy elementlar islomdan keyingi davrning boshlariga toʻgʻri kelsa, XIX asrga kelib ham ularning fors tiliga kirib kelishi davom etgan. Ana shu katta davr ularning maʼno jihatdan tadqiq etishda biroz qiyinchilik tugʻdiradi.

Ikkinchidan: Turkiy tillardan oʻzlashmalar fors tilidagi boshqa arab yoki yevropa (fransuz, ingliz va rus va boshqa) tillaridan kirgan oʻzlashmalar singari muayyan va aniq bir tildan oʻzlashmagan. Bunda bir qator turkiy tillar oilasiga mansub boʻlgan tillar nazarda tutiladi. Ammo, aytish joizki, hozirgi fors tili lugʻat tarkibidagi turkiy oʻzlashmalarning asosiy qismi ozarbayjon, turk va shu kabi boshqa oʻgʻuz tillaridan kirgan. Ularning oʻzlashgan davri asosan XVI asrdan buyogʻidir. Shuning uchun koʻpgina adabiyotlarda ozarbayjoncha soʻzlar deb ham beriladi. Forsiy manbalarida esa “vājehā-ye āzarbayjāniy” va “vājehā-ye torkiy-āzarbayjāniy” deb beriladi.

Turkiy tillardan kirgan oʻzlashmalarning hozirgi fors tilidagi maʼno xususiyatlarini tahlil etishda ularning turkiy tillarning oʻzida bir maʼnoli monosemantik va koʻp maʼnoli polisemantik ekanligini ahamiyati katta. Chunki ularning fors tiliga kirgandan soʻng shu tildagi maʼno xususiyatlari ana shu omilga bogʻliq. Oʻtkazilgan kichik tadqiqotimizda turkiy tildan fors tilidagi soʻzlarning quyidagi maʼno xususiyatlari oʻrganildi.

Turkiy oʻzlashmlarning maʼno kengayishi. Bu turdagi semantik oʻzgarish ham monosemantik, ham polisemantik turkiy soʻzlarda sodir boʻladi. Masalan, *yeylāy* soʻzi ham ana shunday soʻzlardandir. Bu soʻz turkiy tillarda ‘yaylov’ va

² Ўзбек тили ва адабиёти. 1982, 6-сон, 27 бет

‘yozgi salqin joy’ (hordiq joyi) ma’nolariga ega bo’lsa, fors tilida esa yana ‘dala hovli’, ‘dacha’ ma’nosida ham kelishi mumkin, masalan:

در شمال غربی ایران، در ارتفاعات با لاتر از ۱۷۰۰ متر، در شمال شهرستان تالاش بیلاق
"شکردشت" وجود دارد³.

Dar šemāl-e ʔarbi-ye Irān, dar erteḡā’āt-e bālātar az 1700 metr, dar šemāl-e šahrestān-e Tālāš yeylāʔ-e” šokordašt” vojūd dārad.

Eroning shimoliy g’arbida 1700 metrdan ortiq balandlikda Tolosh shahri shimolida “Shokrdasht” yozgi salqin joy bor.

ما گفتیم: این افراد برای گردش پنجشنبه گذشته به ارتفاعت بیلاقی رفته بودند⁴.

Mā goftim: “In afrād barāye gardesh panjšanbe-ye gozašte be erteḡāat-e yeylāʔi rafte budand”.

Biz dedik: “Bu insonlar o’tgan hafta aylanishga yaylov tepaliklariga borishgan edi”.

Turkiy o’zlashmalarning ma’no torayishi. Turkiy o’zlashmalarning ma’no torayishida asosan bitta ma’nosi o’zlashishi ko’proq sodir bo’ladi. Bunday o’zlashmalar turkiy tillarda ikki, uch va undan ortiq ma’nolarga ega bo’lishsa ham, faqatgina bitta ma’nosi o’zlashadi. Masalan, آقا āḡā so’zi turkiy tillarda bir qancha ‘aka’, ‘janob’, ‘og’a’, ‘xojayin’, ‘oila boshlig’i kabi ma’nolarga ega. Hozirgi zamon fors tilida esa bu so’z ikki ‘janob’ va ‘oila boshlig’i (ota) ma’nolarigina o’zlashgan, masalan:

کارم تمام شد و آقای مرزانی هنوز نیامده بود⁵.

Kāram tamām šod va āḡā-ye Marzāni hanuz nayāmade bud

Ishim tugab bo’ldi va janob Marzani esa hali ham kelmagan edi.

³ <http://semorgh.com/culture/defawut.aspx>. (بیلاق شکردشت)

⁴ <http://guila.irib.ir/index.php%3foption%3.aspx>. (بیلاق)

⁵ Ҳазратқулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –Б. 69.

کاظم آقا که دست ها را آستین پالتو پنهان کرده نزدیک در ایستاده بود⁶

Kāzem āyā ke dasthārā āstin-e pāltu penhān karde nazdik-e dar istāde bud.

Qo‘llarini paltosining yengiga berkitib olgan Kozim janoblari eshik yonida turar edi.

Turkiy o‘zlashmlarning yangi ma’no kasb etishi. O‘zlashmalar orasida yana shunday so‘zlar borki, ular fors tiliga kimgach semantik mustaqillikka erishadilar va tamoman yangi ma’no kasb etadilar. Masalan, سراغ *sorāy* so‘zi turkiy tillarda ‘so‘rov’ va ‘savol’ kabi ma’nolariga ega, ammo fors tilida bu ma’nolar mavjud emas. Aksincha, yangi ikki – ‘ma’lumot’ va ‘yo‘qlash’ ma’nolarida qo‘llaniladi, masalan:

در مدت یک سال و نیم که ماهرخ رفته بود بخدمتکاری یکبار نشد که آجی خانم به سراغ او برود
یا احوالش را بپرسد⁷.

Dar moddat-e yek sāl-o nim ke Māhroh rafte bud bexedmatkāri yekbār našod ke Ābjixānom be sorāy u beravad yā ahvālašrā beporsad.

Mohruxning xizmatkorlikka ketganiga bir yarim yil bo‘lgan bo‘lsa ham, Objixonim uni biror marta yo‘qlab yoki ahvolini so‘rab bormadi.

Ma’nosini o‘zgartirmasdan o‘zlashgan turkiy o‘zlashmalar. Bunday o‘zlashmalarga odatda turkiy tillarning o‘zida bir ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar kiradi. Masalan, *alak*, *yāšoy*, *bošyāb*, *yurbaye*, *tolombe* kabi so‘zlar. Bular asosan terminologik leksika bo‘lib, narsa va hodisani nomlash vazifasini bajaradi.

قورباغه لب بر که، روی سنگی نشسته بود.⁸

yurbaye lab-e berke ru-ye sangi nešaste bud.

Qurbaqa hovuz chetida, bir tosh ustida o‘tirar edi.

⁶ Ko‘rsatilgan asar. – B. 156

⁷ Ҳазратқулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –Б. 94.

⁸ Ҳазратқулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –Б. 238

u ham piyode šod, tolomberā āvard.

U ham tushib nasosni olib keldi.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, turkiy tildan fors tiliga oʻzlashgan soʻzlarning semantik tahlilida oʻzlashmalarning maʼno kengayishi, maʼno torayishi, yangi maʼno kasb etishi va maʼno oʻzgarishsiz koʻchishini koʻrib chiqdik. Bu oʻzlashmalar fors tili lugʻat tarkibini boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar roʻyxati

1. Жуманиёзов О. Ўзбек тилидаги герман тиллари ўзлашмалари. Т., 1987
2. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. М., 1975
3. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 48.
4. Ўзбек тили ва адабиёти. 1982, 6-сон
5. Ҳазраткулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. – Т., 1992
6. جلال آل احمدستارتهران ۱۳۷۹/۱۰۴
7. همشهری № 5113, 2008